

## PUDRAT SHARTNOMASI

Keyingi o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladigan “Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi” nomidan ustav asosida ish yurituvchi Abdullayev Faxriddin Raximovich bir tomongan, va keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritalidagan “MANGIT INVEST MAKSIMUM” mas’ uliyati cheklangan jamiyati nomidan ustav asosida ish yurituvchi rahbar BABAJANOV JAVLON QO‘SHMANOVICH ikkinchi tomongan bo‘lib Amudaryo tumani ”Qanli”OFY xududida joylashgan Qishloq vrachlik punkti binosini joriy ta’mirlashga doir pudrat shartnomasini tuzdilar.

### 1. Shartnoma mavzusi

“Pudratchi” mazkur shartnoma shartlariga muvofiq Amudaryo tumani ”Qanli”OFY xududida joylashgan Qishloq vrachlik punkti binosini qurilishi ta’mirlash ishlarni bajarish majburiyatini oladi. “Buyurtmachi” esa “Pudratchi”ga qurilish ishlarni bajarish uchun zarur sharoitlar yaratish va to‘lovlarни amalga oshirish majburiyatlarini oladi.

Joriy ta’mirlash ishlari sifatlari bo‘lishi shart.

### 2. Shartnoma bo‘yicha ishlar qiymati.

2.1 Mazkur shartnoma bo‘yicha “Pudratchi” tomonidan bajariladigan ishlar umumiyligi qiymati **576,099,331 (Besh yuz etmisht olti million to‘qson to‘qqiz ming uch yuz o‘ttiz bir)** so‘mni tashkil etadi

Ishlar qiymati uzil kesil hisoblanadi va keyinchalik qayta ko‘rib chiqilishi mumkin emas.

Quyidagi hollar mustasno:

- Ta’mirlash qiymati va muddatini ko‘paytirishga yengib bo‘lmaydigan (fors – major) holati sabab bo‘lganda;

- Ishlar hajmi Buyurtmachi tomonidan o‘zgartirilganda;

- Ob‘ektning qurilishi bir yildan ortiqcha o‘zgartirilganda.

Ta’mirlash muddati bir yildan ortiq bo‘lganda ikkinchi yilga va keyingi yillarga shartnomaviy narxlarni aniqlashtirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tegishli asoslar mavjud bo‘lganda sanab o‘tilgan o‘zgartirishlar “Buyurtmachi” o‘rtasidagi shartnomasiga qo‘srimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

### 3. Pudratchining majburiyatlar.

Mazkur shartnoma bo‘yicha “Pudratchi” shartnomaning 1-bo‘limida nazarda tutilgan ishlarni bajarish uchun barcha ishlarni mazkur shartnomaga muvofiq bajarish va o‘z muddatida bajarish hamda, ishlarni “Buyurtmachi”ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshirish.

Ta’mirlash maydoniga zarur bo‘lgan materiallar, buyumlar, konstruktsiyalar va butlovchi buyumlar, qurilish texnikalarni yetkazib berish, ularni qabul qilish, tushirish, omborga joylash va mazkur shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi.

### 4. Buyurtmachi majburiyatları

4.1. Buyurtmachi mazkur shartnoma bo‘yicha barcha ishlarni “Pudratchi” tomonidan zarur tarzda bajarilishi xamda ob‘ektning topshirilishi uchun to‘liq mulkiy javob beradi.

Ishlar bajarilishi ustida doimiy qurilish nazorati va mazkur shartnomada qayd etilgan “Pudratchi” tomonidan qabul qilingan majburiyatlar va boshqa funktsiyalarga rioya etilishini nazorat qilish. “Pudratchi”dan tugallangan ishlarni qabul qilib olishni ta’mirlash; Shartnomaga asosan “Pudratchi”ga avans berish va joriy moliyalashtirishni amalga oshirish va mazkur shartnomada nazarda tutilgan majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarish majburiyatini oladi.

### 5. Ishlarni bajarish muddati

“Pudratchi” mazkur shartnomaga muvofiq, birinchi avans to‘lovi tushgan kundan boshlab ishlarni bajarishga kirishadi.

Ishlarni bajarish muddati avans to‘lovidan et’tiboran 15 kunni tashkil etadi.

Mazkur shartnoma bo‘yicha ishlarni bajarish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi.

### 6. To‘lovlar va hisob – kitoblar

“Shartnama kuchga kirib, tegishli Gaznachilik tizimidan ro‘yxatdan o‘tib, byudjet mablag‘lari hisobidan bulsa O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 414-sonli qarori bilan belgilangan to‘lovlar ketma-ketligiga, byudjetdan tashyari mablag‘lar hisobidan bo‘lsa shaxsiy hisob varaq qoldiqqa asosan 5 bank ish kunida “Buyurtmachi” bajarilgan ish yoki ko‘rsatilgan xizmatning umumiyligi summasining 30 foizini bu **172829799,30** (Bir yuz etmisik ikki million sakkiz yuz yigirma to‘qqiz ming etti yuz to‘qson to‘qqiz so‘m 30 tiyin) so‘mni tashkil etadi, oldindan avans tarikasida “Pudratchi”ning hisob raqamiga o‘tkazib beradi. Qolgan qismi bajarilgan ishlarni ko‘rsatilgan xizmatlarni hisob fakturaga asosan o‘tkazib beriladi.

“Buyurtmachi” tomonidan “Pudratchi”ga avans berish va mablag‘larni to‘lash uchun ishlarni bajarish va topshirish dalolatnomalari asos hisoblanadi. Ishlarni qabul qilish dalolatnomalari har oyining oxirida “Buyurtmachi” tomonidan 72 saat mobaynida ko‘rib chiqilib rasmiylashtirilishi zarur. Qo‘sishimcha qilingan ishlarni kerakli rujjatlar rasmiylashtirilgandan so‘ng qo‘sishimcha kelishuvga asosan o‘tkazib beriladi.

#### **7. Ishlarni bajarish**

“Buyurtmachi” ta’mirlash maydonida o‘z vakilini “Texnik nazoratchi”ni tayinlaydi. U “Pudratchi” tomonidan bajarilgan ishlarni ustidan texnik nazoratni amalga oshiradi, shuningdek “Pudratchi” tomonidan foydalanadigan materiallar va asbob-uskunalar shartnama shartlariga muvofiqligini tekshiradi.

“Pudratchi” ishlarni bajarish loyihasiga va mazkur shartnmaning V- bo‘limda ko‘rsatilagan muddatlar bilan muvofiqlashtirilgan o‘z rejasiga va jadvaliga binoan ob’ektda ishlarni bajarishni mustaqil ravishda tashkil etadi.

“Pudratchi” o‘zi tomonidan ta’mirlashda qo‘llaniladigan qurilish materiallari, asbob-uskunalarini va butlovchi buyumlar, konstruktsiyalar va tizimlar sifati loyiha hujjatlarida ko‘rsatilgan spetsifikatsiyalarga davlat standartlariga, texnik shartlarga muvofiq bo‘lishini hamda ularni sifatini tasdiqlovchi tegishli sertifikatlarga texnik pasportlarga yoki boshqa hujjatlarga ega bo‘lishini kafolatlaydi.

#### **8. Yengib bo‘lmaydigan kuch (fors – major) holatlari.**

Agar ushbu shartnama bo‘yicha majburiyatlar qisman yoki to‘liq bajarilmasligi tabiat hodisalari va boshqa yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va agar holatlari mazkur shartnomaning bajarilishiga bevosita ta’sir etsa, tomonlar undan yoki to‘liq bajarmaslik uchun javobgarlikdan ozod etiladilar.

Agar yengib bo‘lmaydigan kuch holatlari yoki ularning oqibatlari bir oydan ko‘p vaqt cho‘zilsa, u holda “Pudratchi” va “Buyurtmachi” ishlarni davom ettirishi yoki ularni konservatsiya qilishi uchun qanday choralar ko‘rilishini muhokama qiladilar.

Agar tomonlar ikki oy ichida kelisha olmasalar, u xolda tomonlarning har biri shartnomani bekor qilinishini talab qilishga haqlidir

#### **9. Qurilish tugallangan ob’ektni qabul qilib olish**

Ob’ektlarni ularning foydalanishga tayyorligi to‘g‘risida “Pudratchi” yozma bildiruvdan keyin “Buyurtmachi” tomonidan 3 kun mobaynida qabul qilib olinadi.

Qabul qilib olingan paytdan boshlab ob’ekt “Buyurtmachi”ning mulkiga aylanadi.

#### **10. Shartnomani bekor qilish.**

Shartnama kuchga kirgandan keyin qurilishning boshlanishi “Buyurtmachi”ga bog‘liq bo‘lmaidan

sabablarga ko‘ra “Pudratchi” tomonidan bir oydan ko‘p vaqtga kechiktiriganda;

“Buyurtmachi” tomonidan moliyalashtirish ishlarni bajarilmaganda.

Shartnama bekor qilinishi taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazgan zararni shu jumladan boy berilgan foydani to‘laydi.

Shartnama Gaznachilik bo‘linmasi ro‘yxatidan o‘tkandan so‘ng kuchga kiradi va “31”dekabr 2021 yilgacha amal qiladi

#### **11. Tomonlarning huquqiy javobgarligi**

Tomonlardan biri shartnama majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmagan taqdirda aybdor tomon ikkinchi tomonga yetkazgan zararni to‘laydi;

O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga, “Iqtisodiy yurituvchi sub’ektlar faoliyatini shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentyabridagi “Kapital qurilishda iqtisodiy

munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 395-sonli qarori (ilova 2.3) va boshqa qonun hujjatlarida hamda mazkur shartnomada nazarda tutilgan tartibda javobgarlikka tortiladi. Mazkur shartnomaga tegishli ilovalarda ko‘rsatilagn o‘z majburiyatlariga rioya qilmaganligi, o‘z vaqtida moliyalashtirilmaganligi va shartnomada belgilangan boshqa majburiyatlarning buzilganligi uchun “Buyurtmachi” “Pudratchi”ga kechiktirilgan har bir kun uchun majburiyatning bajarilmagan qismining 0,4% miqdorida penya to‘laydi. Bunda penyaning umumiy summasi bajarilmagan ishlar yoki ko‘rsatilmagan xizmatlarning 50% oshmasligi lozim.

“Pudratchi” ob‘ektni o‘z vaqtida ishga tushirish bo‘yicha o‘z majburiyatlarini buzganligi uchun “Buyurtmachi”ga muddati o‘tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyatlarning bajarilmagan qismining 0,04% miqdorida penya to‘laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi ob‘ekt shartnomaviy joriy qiymatining 50%dan oshmasligi lozim.

### **12. Nizolarni hal etish tartibi.**

12. Shartnomani bajarishda va bekor qilishda shuningdek yetkazilgan zararlarni qoplashda paydo bo‘ladigan nizoli masalalarini tomonlar hal etolmasa ular qonun hujjatlarida belgilangan tartibda iqtisodiy sudi tomonidan ko‘rib chiqiladi.

### **13. Tomonlarning manzili va bank ma’lumotlari**

#### **«PUDRATCHI »**

#### **“MANGIT INVEST MAKSIMUM”**

#### **mas‘uliyati cheklangan jamiyat**

Manzili: Amudaryo tumani

Jumurtov shaharchasi

x/r: 20208000004778381001

Bank nomi: Amudare t,  
Mikrokreditbank ATB Mangit f.

STIR: 301189848 MFO 000520

Tashkilot rahbari   
Babajanov Javlon Qo'shanovich

#### **«BUYURTMACHI»**

#### **Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi**

Manzili: Amudaryo tumani Mang‘it shahri

Sh/xv: 100022860352047072120054010

STIR: 200975094 MFO: 00014

G‘aznachilik bo‘linmasi nomi: Moliya  
Vazirligi g‘aznachiligi yagona g‘aznachilik  
h/r 23402000300100001010

Toshkent shaxar Markaziy bank XKKM,  
MFO 00014, STIR 201122919

Rahbar \_\_\_\_\_

Abdullahayev Faxriddin Raximovich

	Hujjat <b>elektron raqamli imzo</b> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun <b>QR Code</b> ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	FAXRIDDIN ABDULLAYEV RAXIMOVICH
	Imzolangan sana	28 сен 2022 15:51
	Hujjat kodi	ZH4664311646
	Hulosa kodi	KX3383407321

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN  
HUJJATLARNINGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY  
XULOSA**

**№ ZH4664311646**

**1. Loyhaning turi:** Shartnomasi

**2. Loyihaning nomi:** Pudrat Shartnomasi.

**3. Loyihaning mazmuni:** Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi nomidan ustav asosida ish yurituvchi Abdullayev Faxriddin Raximovich bir tomondan, va keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritalidagan “MANGIT INVEST MAKSIMUM” mas‘uliyati cheklangan jamiyati nomidan ustav asosida ish yurituvchi rahbar BABAJANOV JAVLON QO‘SHMANOVICH ikkinchi tomondan bo‘lib Amudaryo tumani ”Qanli”OFY xududida joylashgan Qishloq vrachlik punkti binosini joriy ta‘mirlashga doir pudrat shartnomasi to‘g‘risida.

**4.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot:**

Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan tomonidan 2022-yil 28-sentabr kuni ishlab chiqilgan va dasturga kiritilgan.

Mazkur loyiha O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi №670-I-son Qonunining 10-moddasiga asosan tuzilgan. Shartnoma shartlari va shartnomada nazarda tutilgan javobgarlik asoslari hamda nizolarni hal qilish tartibi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi “Xo‘jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy - huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi № 670-I-son Qonunining 21-moddasiga asosan, Qonunchilikka muvofiqligini aniqlash ekspertizaning asosini tashkil qildi.

Huquqiy ekspertiza natijasida quyidagilar aniqlandi:

1. Shartnoma loyihasi O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga mos ravishda tuzilgan. Shartnoma shartlari shunday munosabatlarni tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablari me’yorlariga javob beradi. Mazkur shartnoma O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining Pudrat shartnomasi munosabatlarini tartibga soluvchi 37-bobi jumladan, 631,632,636,638-moddalari bilan tartibga solinadi.

2. Shartnoma taraflarining javobgarligini belgilovchi me’yorlari va nizolarni hal qilish tartibi bilan bog‘liq shartlari O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik qonun hujjatlari hamda O‘zbekiston Respublikasi “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonunida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003- yil 3-sentyabridagi “Kapital qurilishda iqtisodiy munosabatlari mexanizmini takomillashtirish choralari to‘g‘risida”gi 395-sonli qaror me’yorlariga, shuningdek amaldagi boshqa qonun hujjatlari bilan belgilangan talablarga to‘liq mos keladi.

3. Ushbu shartnoma loyihasini ko‘rib chiqishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentyabrdagi “Shartnomaviy munosabatlarni tubtan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6313-sonli Farmoniga amal qilinganligi aniqlandi. Ya’ni ushbu farmonda xo‘jalik yurituvchi subyektlar tomonidan davlat xaridlari bilan bog‘liq tuziladigan shartnomalarda majburiy ravishda korrupsiyaga qarshi qo‘srimcha shartlar belgilanishi ta’kidlangan.

4. Mazkur xulosani tuzish vaqtida tomonlarning mazkur Shartnoma talablarini bajarishga ta’sir ko‘rsatuvchi hech qanday omillar, davlat boshqaruven organining qonuniy yoki boshqa ko‘rsatmalari mavjud emas.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o’tkazish natijalariga ko’ra,

**XULOSA:**

Amudaryo tumani tibbiyot birlashmasi tomonidan 2022-yil 28-sentabrda ishlab chiqilgan “Pudrat” shartnomasining qabul qilinishi **muvofiqligi haqida**.

**Amudaryo tumani adliya bo’limi  
yuridik xizmat ko‘rsatish markazi  
bosh yuriskonsulti 3-darajali yurist:**



A.Z.Tojiboyev  
28.09.2022-yil